

NUMIZIMATIKA, TEMURIYLAR VA SHAYBONIYLAR DAVRI
TANGALARI

Do'stmurodov Bahodir

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Tarix mamlakatlarda yo'nalishlari bo'yicha” yo'nalishi
1-bosqich 13T-2023 guruh talabasi
Email address:
zazu87338@gmail.com
[Tel: +998 95 2287981](tel:+998952287981)

Rahimov Javlon

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Tarix mamlakatlarda yo'nalishlari bo'yicha” yo'nalishi
1-bosqich 13T-2023 guruh talabasi
Email address:
javlonrahimov880@gmail.com
[Tel: +998 93 450 30 74](tel:+998934503074)

Xurramov Otabek

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Tarix mamlakatlarda yo'nalishlari bo'yicha” yo'nalishi
1-bosqich 13T-2023 guruh talabasi
Email address:
Otashbekxurramov28@gmail.com
[Tel: +998 90 872 72 03](tel:+998908727203)

Mahmaraimov Izzat

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Tarix mamlakatlarda yo'nalishlari bo'yicha” yo'nalishi
1-bosqich 13T-2023 guruh talabasi
Email address:
mahmaraimovizzat@gmail.com
[Tel: +998 95 700 56 09](tel:+998957005609)

G'oyibnazarov Mo'min

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Tarix mamlakatlarda yo'nalishlari bo'yicha” yo'nalishi
1-bosqich 13T-2023 guruh talabasi
Email address:
goyibnazarovmumin@gmail.com
[Tel: +998 99 254 34 68](tel:+998992543468)

Anotatsiya: Ushbu maqolada Temur va Temuriylar tomonidan tangalar zarb etilishi, shuningdek tangalarda hukmdorlarni qanday nomlar bilan qaysi shaharlarda zarb ettirganliklari haqida ma'lumotlar berilgan. Hamda shayboniylar davriga kelib pul muommalasi qay darajada ravnaq topgani haqida aytib o'tiladi

Kalit so'zlar: Amir Temur, kumush tangalar, Ibn Arabshoh, Mirzo Ulug'bek, Termiz arxeologiyamuzeyi, Chig'atoy ulusi, oltin tanga. *qora pul, islohot.*

Tarixdan ma'lumki o'rta asrlar islom olamida har bir davlat asoschisi mutlaq mustaqil ekanligini avvalo xutbaga o'z nomini qo'shib o'qitish orqali va keyingi, eng muhim belgi o'z nomidan tanga pullar zarb ettirishi orqali butun olamga ma'lum qilgan. Buyuk ajdodimiz Amir Temurning ham bu boradagi faoliyati e'tiborga molikdir. 1370-yilda Chig'atoy ulusida Amir Temur hokimiyat tepasiga kelganida o'z nomidan tanga zarb qilish masalasi turar edi. Bu vaqtgacha Chig'atoy ulusida Kebekxon 1321-yilda o'tkazgan pul islohoti natijasida yagona namuna bo'yicha, og'irligi 1.4 gramm bo'lgan kumush dirhamlar hamda og'irligi 8 grammga yaqin bo'lgan kumush dinorlar zarb qilish yo'lga qo'yilgan edi. Kumush dinor 6 dirhamga teng kelar edi. Bugunda bir guruh olimlar Amir Temur esa hokimiyat tepasiga keliboq o'z nomidan tangalar zarb ettirmagan, har qalay uning nomi bilan zarb etilgan tangalar dastlabkilari 1372-yil sa'nasi bilan uchraydi-deb ta'kidlashsa, boshqa bir olimlar Amir Temur o'zining birinchi tanga pullarini 774/1372-1373 yilda chig'atoy xonlari andozasi bo'yicha zarb ettirganini, lekin 1380-yillarga kelib pul islohoti o'tkazib, yangi namunadagi pullarni shu nomidan zarb ettirganini takidlashadi. Demak qisqa muddat davomid saltanatda Kebekxon islohoti natijasida zarb etish boshlangan mo'g'ul xonlari tangalari muomalada bo'lgan. Amir Temur oltin, kumush va mis tangalar zarb ettirgan, ammo oltin tangalarni kamdan kam zarb ettirgan. Jumladan, 1380-yilda Samarqand va Xorazimda miqdorda oltin tangalar zarb ettirgan. Amir Temur zarb ettira boshlagan tangalar qator hususiyatlari bilan boshqa davr tangalaridan tubdan farq qilgan. Zarb qilingan tangalarga bosilgan tamg'alar shular jumlasidandir. Ular asosan dumaloq, to'rtburchak va gul (asosan anor) ga o'xshash naqshlar va hokazolardan iborat bo'lgan. Tangalarda Amir Temur nomi bilan birgalikda taxtga chiqarilgan saqti mo'g'ul xonlari nomi ham qo'shib zarb etilgan. 1372-1388 yillarda Suyurg'atmishxon, uning vafotidan so'ng o'g'li Sulton Mahmudxon nomi bilan 1402-yilgacha, ya'ni vafot etguniga qadar zarb etilgan. Amir Temur kumush tangalarini 6 grammlisi tanga, 1.5 grammlisi esa "amiri" yoki "miri" deb nomlangan. Amir Temur hukmronligi yillarida (1370-1045) nafaqat Movarounnahrning markaziy shaharlarida, balki Xuroson, Eron, Ozarbayjon hududlarida chunonchi, Astrabod, Ashpara, Boku, Basra, Bag'dod, Bomiyon, Damg'on, Darband, Yazd, Isfahon, Koshon, Qarshi, Kermon, Qum, Mordin, Mahmudobod, Mashhad, Sova, Samarqand, Sultoniya, Tabriz, Xorazim, Shabanka,

Sheroz, Shamaxa va Hirot kabi 40 ga yaqin shaharlarda zarb qilingan. Yana manbalarda yuqorida tilga olingan hududlardan boshqa yana Hindiston, Turkiya, Shom va Misr hukmdorlari ham Amir Temur nomidan oltin va kumush tangalar zarb ettirganligi ma'lum bo'ladi. Masalan Ibn Arabshoh shunday ma'lumot beradi: "Turk sultoni Boyazid ustidan g'alaba qilganligidan so'ng uning o'g'illaridan Isfandiyor (Amir) Temur huzuriga kelib itoat izhor etdi. Isfandiyorni Rumdagi o'z martabasiga barqaror etdi va unga o'z atrofidagi amirlariga Mahmudxon va Amir Temur ko'ragon nomi bilan xutba o'qitib, pul zarb etishlarini amr etdi." Yana bir tarixchi Sharafuddin Ali Yazdiy esa o'z "Zafanoma"sida: "Amir Temurning turk sultoni ustidan g'alabasidan so'ng Misr va Shom hukmdori Malik Nosir Amir Sohibqironga muholifat bo'lish mumkin emasligini anglab, o'z taqdiri omonligini tilab, Amir Temur nomiga xutba o'qitib tangalar zarb qildi" deb ma'lumot beradi. Albatta bu davrda davlat oltin va kumush tangalar sofligi va vazniga alohida e'tibor berib, nazorat qilgan. Ayni chog'da bu tangalarda mahalliy bezaklarning o'ziga xosligi, nafisligi ham saqlab qolingan bo'lib Hirot, Mashhad, Isfahon, Tabriz va Bag'dodda zarb qilingan tangalarda bu xususiyatlar yaqqol ko'zga tashlanadi.

Amir Temur tangalarining yana bir o'ziga xos jihati shundaki 1403-yil 13-mart sanasida sevimli nabirasi va valiahd shahzoda Muhammad Sulton vafot etadi. Natijada qaatiq qayg'uga botgan Amir Temur vafot etgan nabirasi xotirasini yodga olish uchun uning nomidan tangalar zarb ettiradi.

Shayboniylar davridagi tangalar va ularning temuriylar davridagi zarb qilingan tangalar bilan qiyosi. Muhammad Shayboniyxon va Kuchkunchixon tangalari.

XV asrda o'zbeklar turkiy tilda so'zlashuvchi va chingiziy Abulxayrxon hukmronligi ostida birlashgan qabilalarning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lishgan. 1448 yildan boshlab Dashti qipchoqdagi o'zbeklarning Temuriylar davlatiga yurishlari Abulxayrxondan boshlanadi va Temuriylar davlatining inqirozi bilan tugaydi. Shayboniyxonlar tomonidan o'lkada ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jumladan, 1507-1508, 1529-1530, 1583, 1598 yillarda pul islohotlari amalga oshirildi. Bu davrda Shayboniylar nomi bilan yangi kumush va mis tangalar zarb etildi. Oltin tangalar esa faqatgina Abdullaxon II davrida zarb etilgan. 1507 yili Muhammad Shayboniyxon Hirotni egallagach shaharning jome' masjidida pul islohoti to'g'risida farmon berdi. Bu davrda Hirotida pul muomalasi chuqur inqirozga uchragan edi. Bu islohot jamiyatning boy savdogarlar qatlamini Shayboniyxon tomoniga og'dirishi kerak edi. U kumush tanga muomalasi, ishonchli savdo va o'zgarmaydigan zarbxona va'da qildi. Kumush muomalasining asosida Muhammad Shayboniyxon yorlig'i bilan chiqarilgan yangi bezakli tanga yotadi. So'ngi

Temuriylar tangasi misqol bilan tenglashib, uning vazni 4,8 grammni tashkil qiladi. Shayboniyxon yangi tangasining og'irligi misqolning 1/12 qismiga teng bo'lgan. Misqolning og'irligi 5,2 grammni tashkil etgan. Shayboniyxon islohoti

Temuriylarning bir misqolli tangalarini muomalada bo'lishini ta'qiqlamadi, lekin ularning qiymatini pasaytirdi. 1992 yilda chop etilgan Ye.A.Davidovichning "Korpus zolotykh i serebryanykh monet Sheybanidov" nomli asarida tangalarning sobiq SSSRda o'rganilishi haqida ma'lumot berilgan. Mis tangalarning eng keng tarqalgan davri XVI asrning birinchi choragiga to'g'ri keladi. Bu davrda mis tangalar "pul", "qora pul" kabi alohida atamalar bilan nomlangan. Shayboniyxon va Kuchkunchixon tomonidan zarb etilgan tangalari yaxshi o'rganilmagan tarixiy davr haqida muhim ma'lumotlarni beradi.

Shayboniylar kumush tangalari Temuriylar davrida zarb qilingan tangalardan farq qilgan. Lekin mis tangalari Temuriylar davrida zarb qilingan tangalarga o'xshash edi. Shayboniylar davridagi mis (fulus) tangalar e'tiborsizlik bilan zarb qilingan. Bizgacha etib kelgan mis tangalar yozuvlari o'chib ketganligi uchun yaxshi o'rganilmagan. Shayboniyxon tangalarida quyidagi yozuvlarni ko'rishimiz mumkin. Zarb Samarqand, 907 h./1501-1502 y. O'lchami. 23-27 mm; Og'irligi. 4,8 gr. Tanganing chetlarida "Muhammad ... bani xan" – "Sulton" deb yozilgan. Tadqiqotchi G.A.Xudyakovshu yuqorida o'chib ketgan yozuvlar o'rnini keyingi tangalar bilan solishtirib shunday qayta tiklagan: *Oliy nasab Sulton, Ollohning ishlari davomchisi, din himoyachisi – Muhammad Shayboniyxon. Olloh uning umri va hukmronligini ziyoda qilsin.* Tanganing reversida – *Ollohdan boshqa iloh yo'q! Muhammad uning elchisi!* Aylanasiga 4 ta halifaning ismlari bitilgan. *Umar-al-Farrux, Usmon al-Affon, Ali al-Murtadi, Abu Bakr.*

Shayboniyxon tangasi. Buxoro. dirham (kumush). Shayboniyxonning pul islohotining tugallanishi 1508 yilga to'g'ri keladi. Shayboniylar davlatining Samarqand va Buxoro, Marv va Niso, Saraxs va Hirot Mashhad, Nishopur, Nimruz, Kayn va Sabzavor kabi shaharlarida tangalar zarb etilgan. 1510 yili Muhammad Shayboniyxon vafotidan keyin urushlar, qattiq kelgan qish, qimmatchilik va ocharchilikni keltirib chiqardi. Pulning qadrsizlanib uning vazni va qiymati tushib ketdi.

Mis tangalarning miqdori qanchalik ko'paymasin, bozorlarda mahsulotlarning narxi orta boraverdi. Kumush tanga umuman muomaladan yo'qoldi va yangi kumush tangalar zarb etilmadi. Pulning inqirozini to'htatish uchun mis tangaga bo'lgan ishonchni tiklash, kumush tanga zarb etishni yo'lga qo'yish va pul islohotini o'tkazish zarur edi. Ammo pul islohoti uzoq davom etib, unga salkam 15 yillik vaqt ketdi. Ubaydullaxon Samarqand va Buxoro shaharlarida pul islohotini o'tkazdi. Bu davrda Buxoroda Ubaydullaxon, Samarqandda Shayboniylar sulolasining boshida Ko'chkinchixon turardi. Ular mustaqil siyosat yuritardilar. Bu davrda yuqori vaznli mis tangalar va kumush tangalar zarb etilgan. Ammo Buxoro Samarqand tangalari bir xil emas edi. Faqat 1525 yilga kelib tanga bosishning umum davlat mezoniga o'tilib, bir misqolli (4,8 gr) tanga muomalaga kiritildi. Bir misqolli kumush tanga 20 ta mis

tangaga to‘g‘ri kelardi. Kumush tangalar ikki guruhga bo‘linadi. Biri manbalarda “ko‘hina”, ikkinchisi “yangi tangalar” deb ataladi. Iqtisodiy tahlil tanganing toza kumushdan zarb etilmaganligini ko‘rsatadi. Standart tanganing probasi 90% kumush, 10% mis bo‘lishi kerak edi. Shuning uchun ham xujjatlarda o‘ndan to‘qqiz yoki o‘n to‘qqiz deb atalgan. Bu har bir tanganing 4,3 gr kumush, 0,7 gr mis bo‘lishi shart edi. Buxoro, Samarqand Balx va Toshkentda kumush tangalar zarb etilgan. Bu shaxarlarga Zarafshon vohasidagi Ko‘fin, Karmana, Andijon Aysi, Kesh Hisor va Yassi kirardi. Kuchkunchixonning tangasida quyidagi yozuvlar bitilgan: **Kuchkunchi* Buxoro, 932 h.y./ 1526 y.** O‘lchami. 26-29 mm; Og‘irligi. 4,7 gr. Tanganing old tomonida pastdan yuqoriga “**Zarbi Buxoro. 932 y.**” Tanganing o‘rta qismida esa *As sulton al hoqon al-Azam Abu Muzaffar Kuchkunchi Bahodurxon. Olloh uning umri va hukmronligini ziyoda qilsin* Tanganing reversida *Ollohdan boshqa iloh yo‘q! Muhammad uning elchisi!* Shayboniylar tangalarida yozuvlarni bezatgan naqshlar bo‘lib, bu bezaklar xalqa, gul, uchlari tugilgan to‘rtburchak shakllarda bo‘lgan. Yozuvlar ko‘p hollarda nasx yoki kufiy uslubida bitilgan. Ba‘zan tomonlardan biridagi yozuv o‘rniga turli naqshlar yoki hayvon, qushlarning rasmi tushirilgan.

Abdullaxon II ning pul islohoti. Abdullaxon II davridagi pul isloxoti bir necha bosqichda o‘tkazilgan. Uning islohoti kumushning qimmatlashishi davriga to‘g‘ri kelib, kumush tanganing qadrini ko‘tarishga qaratilgan edi. Tanganing kursi 1,5 barobar ko‘tarildi. Eski tanga 27 ta mis tangaga teng bo‘lsa, yangi tanga 30 ta mis tangaga tenglashdi. Abdullaxon II Buxoroni otasi Iskandarxonga topshirib, o‘zi Balx (1573), Hisor (1574), Samarqand (1578) va Toshkentni (1582) egallagan paytda ham kumush tanga muhim ahamiyatga ega emas edi. Iskandarxon (1560-1583) nomidan zarb etilgan tangalar Buxoro, Samarqand, Balx, Toshkent, Andijon, Aysi va Yassida chiqarildi. 1583 yilda Abdullaxon II otasi vafot etgandan so‘ng, pul islohotining ikkinchi bosqichini o‘tkazdi. Xon tanga zarb etish markazini mamlakatning poytaxti Buxoroga ko‘chirdi. Har yili Abdullaxon II nomi bilan ko‘plab tangalar zarb qilina boshlandi. Buxoro tangasi o‘zining bezagi, yozuvi va sifati bilan ajralib turadi. Abdullaxon II shaharning kundalik ehtiyoji uchun mis tanga ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydi. Kumushning chetga chiqib ketishini to‘xtatdi. XV asrda bo‘lganidek, XVII asrda ham kumush va mis tangalarni tamg‘alash uslubi davom etgan. **Xiva va Qo‘qon xonliklaridagi zarb qilingan tangalar.** Xiva xonligida davlat mustaqilligining birlamchi shartlaridan bo‘lmish – o‘z tangasi doim bo‘lgan va u asosan qimmatbaho metal oltin, kumush, misdan zarb qilingan. Xonlar o‘z nomini tangalarga zarb qilganlar. Faqat rus istilosidan so‘ng xonlikning taqdiri xavf ostida qoldi. Xiva xoni Muhammad Rahimxon I davrida shaharda maxsus zarbxona qurilgach, tangalarni ibtidoiy usulda zarb qilishga chek qo‘yildi. Zarbxonada oltin, kumush, mis tangalar, abbos shohi va shohi pullar tayyorlangan. Bunga ko‘ra – oltin tangalar ikki xilda: “puxta” tillo (10 so‘mlik) va “tillo” (5 so‘mlik) bo‘lib, bir tomonida xonning ismi,

martabasi, ikkinchi tomonida esa zarb qilingan joyi yozilgan. Mis tangalarning aversida “Xorazm” degan yozuv bitilgan. Rossiyaning bosqinigacha muomalada bo‘lgan xonlik tillo tangalari “puxta” – 3 so‘m 60 tiyin yoki 18 tanga, tillo 1 so‘m 80 tiyin yoki 9 tanga hisobida ayirboshlangan. Bir tanga - 20 tiyin, pul - 5 tiyin, shohi esa 32 tangaga teng bo‘lgan. Asosiy pul hisob birligi oltin va kumush tanga hisoblanardi. Bir tanga 32 pulga tengdir. Xiva tillo tangasining og‘irligi Nebolsinning ko‘rsatishicha, bir misqolga (4, 26 gramm) teng bo‘lgan. Uning bahosi kumush bilan solishtirilganda 3 so‘m 43 tiyindan 4 so‘m 30 tiyingacha tengdir. “tillo” – oltin pul bo‘lib, ikki xil shaklda va og‘irlik miqdorida bo‘lar edi. O‘sha davr pul miqdorida 1 so‘m 80 tiyinga teng, ikkinchisi 3 so‘m 60 tiyin deb belgilangan edi. “tanga” -kumushdan ishlanib, bir tanga o‘sha davr pul birligida 30 pul birligi yoki yoki 20 tiyin deb belgilandi. “pul” - misdan ishlanadi. U pul va tiyinga bo‘linar edi. Kumushdan ishlangan tanga oq tanga” deb, misdan ishlangan pul “qora tanga”deb yuritilar edi. “Qora tanga” o‘zining qiymati jihatidan oq tanganing 60 % ga teng edi. Shuningdek xonlikda “shoyi”, “Abbos shoyi”, “yarim shoyi” deb nomlangan pul birliklari ham ishlatilgan. Ularning qiymati 10 tiyindan 40 tiyingacha o‘zgarib turgan. Oltin va kumush tangalarning metali sof bo‘lib, hech bir qo‘shimcha va soxtagarchiliksiz zarb qilingan. 1882 yili Xiva va Buxoro tangalarini Peterburgda tekshirishdan o‘tkazib ko‘rganlarida ularning miqdori quyidagicha ekanligi aniqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ирпон Тўхтиев. Амир Темур ва темурийларнинг пул-молия сиёсати. Т., “Ўзбекистон”. 2006
2. Ирпон Тўхтиев. Амир Темур ва темурийлар сулоласининг тангалари. Т., “Фан”. 1992
3. Т.Эрназарова, Б.Кочнев. Тангалар ўтмиш даракчилари. Т., “Фан”. 1977
4. А.Г.Казанцев. Исламские монеты VII-XVI веков. Екатеринбург., 2016
5. Е.А.Давидович. История денежного обращения средневековой Средней Азии. Москва., Наука. 1983
6. Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома. Т., “Шарқ”. 1997
7. Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. 1-китоб, Т., “Меҳнат”. 1992
8. Рюи Гонсалес де Клавихо. Самарқанддаги Амир Темур саройига саёҳат кундалиги. “Санъат”журнали. 1990. No9
9. Normuminov, M. B. (2020). Coins from the time of Amir Temur and the Temurids kept in the funds of the Termez archaeological museum. ISJ Theoretical & Applied Science, 07 (87), 336-342.
10. U.Shapulatov, M. Normuminov. TREASURE OF COINS FOUND QIRQQIZ MONUMENT. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. ISSN: 2249-7137 Vol.

11. Issue 11, November 2021 SJIF 2021 = 7.492. DOI: 10.5958/2249-7137.2021.02518.0
12. Rahmatullayeva O., Salomov J. Numizmatika. – T., Fan va texnologiyalar, 2012.
13. O‘lmas obidalar / O‘zbekiston xalqlarining qadimgi yozma yodgorliklari bo‘yicha tadqiqotlar / M.Is‘hoqov., N.Rahmonov., Q.Sodiqov., B.To‘xtiev. – T: Fan, 1989. - B. 98-100.
14. Xudiyakov G.A. Noviye danniyе o monetnom chekane Karaxanidov i Sheybanidov // Numizmatika Sentralnoy Azii. VII. Sbornik statey. Pod redaksiyey akademika AN Respubliki Uzbekistan E.V.Rtveladze. – T., 2004. – S. 70-79.
15. Xoliqov Z. Jahongirov B. So‘nggi o‘rta asrlar tangalari // Moziydan sado, -№ 3. - B. 26-27. 2008.